



UDK: 316.752

Shaxnoz ANDAYEVA,

Texnologiya, menejment, kommunikatsiya instituti "Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasini mudiri

E-mail: shahnoza7448@gmail.com

Tarix fanlari doktori, dotsent D. Abdullayev taqrizi asosida

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA TALABALARDA MILLIY QADRIYATLAR TARIXINI O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI MAZMUNI

Аннотация

Ushbu maqolada yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilib, ularning natijalari asosida milliy qadriyatlarni o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Milliy qadriyatlar, tarix, pedagogika, metodika, tajriba-sinov, ta’lim tizimi, innovatsion yondashuv.

CONTENT OF EXPERIMENTAL WORK ON IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE HISTORY OF NATIONAL VALUES TO STUDENTS IN RENEWING UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the relevance of teaching the history of national values to students, the pedagogical and methodological foundations of this process in the conditions of renewing Uzbekistan, as well as effective mechanisms that can be used in the education system. The article reveals the role of systematic teaching of knowledge about national values in the formation of national identity, historical memory and respect for cultural heritage.

Key words: National values, historical consciousness, methodology, student, renewing Uzbekistan, education, upbringing.

СОДЕРЖАНИЕ ОПЫТНО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ УЧАЩИМСЯ В ОБНОВЛЯЮЩЕМСЯ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье анализируется актуальность обучения студентов истории национальных ценностей, педагогические и методические основы этого процесса в условиях модернизирующегося Узбекистана, а также эффективные механизмы, которые могут быть использованы в системе образования. В статье раскрывается роль систематического обучения знаниям о национальных ценностях в формировании понимания национальной идентичности, исторической памяти, уважения к культурному наследию.

Ключевые слова: Национальные ценности, историческое сознание, методология, студент, обновляющийся Узбекистан, образование, воспитание.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi tubdan yangilanmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar jarayonida yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlash, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Talabalarning milliylikka xos qadriyatlar tarixini rivojlantirish asosida yo‘naltirilgan pedagogik tizimning samaradorligini aniqlash muhim shartlaridan biri ya’ni ta’kidlovchi oliygozlarda tajriba ishlarining to‘g‘ri va aniq tashkil etilishidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy ishining birinchi har tomonlama aniqlangan kamchiliklarni yo‘qotish va yutuqlarni boyitishni ta’kidlovchi tajriba ishlari davom ettirish bilan belgilab olindi. Shunga ko‘ra, amalga oshirilgan ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish maqsadida maxsus ko‘rsatkichlar tizimini o‘z ichiga olgan dastur ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur dastur asosida talabalarda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadga muvofiqligini ta’minlovchi ko‘rsatkichlar,

shuningdek, tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlash metodikasi yoritildi.

Kuzatuv ishlari jarayonida quyidagi tarbiyaviy vazifalar hal qilindi:

1. Tajriba-sinov maydonchalari aniqlandi.
2. Tajriba-sinov muddatlari, bosqichlari belgilandi va har bir bosqichda amalga oshiriladigan xususiy vazifalar aniqlandi.
3. Tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari, ya’ni respondentlar soni belgilab olindi hamda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.
4. Respondentlar tajriba-sinov ishlarining amalga oshirilishidan xabardor qilindi.
5. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etuvchi mas’ullar aniqlandi.
6. Tajriba-sinov materiallari sifatida dastlabki ishlanmalar tayyorlandi va uning mazmuni tadqiqot bazasi sifatida universitet Kengashlarining yig‘ilishlarida muhokama etildi.
7. Talabalarda jarayonida qo‘llaniladigan maqbul shakllar, metodlar va vositalar belgilab olindi.

8. Ishlab chiqilgan metodika ta'kidlovchi tajriba-sinov jarayonida sinovdan o'tkazildi hamda uning natijalari tahlil etildi.

9. Ishlab chiqilgan metodika samaradorligini aniqlashga erishish. Shu maqsadda tadqiqot Ob'yekti hisoblangan tajriba-sinov maydonlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda taqdim etilayotgan metodikadan foydalanildi hamda uning samaradorligi aniqlandi, zarur holatlarda uning mazmuniga o'zgartirishlar kiritildi.

10. Talabalarining milliylikga xos qadriyatlar tarixini rivojlantirishga qaratilgan tajribalar izchillik tarzda tashkil etilgan va uning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlovchi sharoitlar yaratildi.

11. Tajriba-sinov ishlarining natijalarini umumlashtiruvchi, ta'kidlovchi, o'zgartiruvchi, shuningdek, nazorat qiluvchi tajriba ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi, samaradorligi xususida yakuniy xulosa chiqarildi va umumiy natijalar matematik-statistik metod yordamida qayta ishlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy bilim yurtida o'qiyotgan talib ilmlarda fuqaro savodxonligini oshirishga taluqli amaliy ishlarini olib borishda biz quyidagi mezonlardan foydalanamiz; o'rganilayotgan ishda birinchi navbatda maqsadni belgilab olish darkor; o'rganilayotgan ishda o'zaro bog'liqlik, aloqadorlik, uzviylikni bo'lishi kerak; o'rganilayotgan ishda nazariya bilan amaliyotni o'zaro birgalikda hamohang olib borish; o'rganilayotgan ishda ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshi yaratilganligi va tashkillashtirilganligi.

O'rganilayotgan ishda qatnashayotgan talabalarga quyidagi holatlar yaratilgan bo'lish kerak: yig'ilayotgan dalillar o'rganilayotgan ishga to'g'ri kelishi kerak; o'rganilayotgan ishga to'g'ri keladigan uslublarni tanlab joylashtirish kerak; tajribada qatnashayotgan talabalarni aniq hisob kitobini olish;

3.1.1-jadval. Tajriba-sinov ishlari bosqichlari, maqsadi va metodlari

Bosqich	Tavsif
I bosqich (2021-2022 yy)	Maqsad – oliy bilim yurtida tahsil olayotgan talabalarining milliylikga xos qadriyatlar tarixini oshirishning ilk holatini o'rganib chiqish va muammoning yechimini hal etishning foydali bo'lgan yo'nalishlarini belgilab olish
	Metodlari: tekshirish va taqqoslash, birlashtirish, tartibga solish; anketa; test; kuzatish; talabalar bilan suhbat o'tkazish; aniqlovchi eksperiment; matematik statistika metodlari; ma'lumotlarga ishlov berishning grafik metodlari; natijalarga ishlov berishning matematik metodlari.
	Vazifalar: savodxonlikni qanday holatdalgini aniqlab olish; ushbu holatni rivojlantirishga oid modelni ishlab chiqish; ushbu holatni rivojlantirishga oid ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni aniqlash; nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirish; milliylikga xos qadriyatlar tarixini oshirishning tamoyillarini belgilab olish;
II bosqich (2022-2023 yy)	Maqsad – 1. Shakllantiruvchi tajriba-sinovni o'tkazish. 2. Tadqiqot farazini aniqlashtirish va tekshirish. 3. Taklif etilayotgan inovatsiyalarni tajriba jarayonlarida ishlatib ko'rish.
	Metodlari: ta'lim oluvchining shart-sharoitlari bilan tanishish, ularni o'quv jarayonlarini o'rganish; shu soha yetakchilari bilan birgalikda baholash; so'rovnomalarni o'tkazish shu sohaga oid testlar olish; raqamlarga oid tahlillar olib borish, olingan ma'lumotlarga ishlov berish.
	Vazifalar: Ilmiy ishni modelini tuzib olish; raqamlarga tayangan holda tahlillar o'tkazish; olingan natijalarni hayotda qo'llab ko'rish; oxirgi hal qiluv qororga kelish; talib ilmlarda fuqaro savodxonligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.
III bosqich (2023- 2024yy)	Maqsad – O'rganilayotgan mavzu yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish; o'rganilayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni ielab topish va tadqiqot ishida foydalanish.
	Metodlari: raqamlarga tayangan holda tahlillar olib borish, ma'lumotlarni taqqoslash, yig'ilgan dallillarni joy-joyiga ko'yish
	Vazifalar: Shu o'rganilayotgan mavzuga oid tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amalda qo'llab ko'rish, barcha dalallarni to'plagan holda dissertatsiyani shakllantirish, olingan bilimlarni kelajakda amaliyotda foydalanishni yo'lga qo'yish.

Quyida mazkur tamoyillarga qisqa to'xtalib o'tamiz.

Yaxlitlik tamoyili: a) tizimli-jarayonli yondashuv; b) talabalarini kasbiy tayyorlash jarayonida o'rganilayotgan hodisaning o'rni aniq belgilash; v) o'rganilayotgan hodisaning dinamikasini ochib berishni talab etadi. Mazkur tamoyil asosida talabalarda milliylikga xos qadriyatlar tarixini rivojlantirish modelini amalga oshirishga rahbarlik qilindi.

Ob'yektivlik tamoyili: a) bir qancha metodlar bilan har bir dalilni tekshirish; b) tadqiq etilayotgan ob'yektdagi o'zgarishlarning har tomonlama namoyon bo'lishini qayd etib borish; v) mazkur tadqiqot ma'lumotlarini boshqa izlanishlarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar bilan solishtirishni talab etadi. Ushbu tamoyildan olingan dalillarni baholash va tahlil etishda foydalanildi.

tajribada qatnashayotganlar oldindan tadqiqot ishiga oid ma'lumotlarga ega bo'lishi lozimligi; oliy bilim yurtlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yilganligi; ikki tomonga uchun o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatilganligi; har bir o'tkazilgan tajriba ishlarini tahlil qilib borilishi; statistik metodlarning aniq tanlab olinganligi.

Tahlil va natijalar. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi:

1. Talabalarda milliylikga xos qadriyatlar tarixini rivojlantirish jarayonida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuviga erishish.

2. Tahsil oluvchilarda milliylikga xos qadriyatlar tarixini oshirishning yakdil ya'ni tarbiya bilan bog'liq omillarga suyanish.

3. Ilmiy merosimizni negizlarini talabalar o'zlashtirib olishiga erishish.

4. Talabalarining milliylikga xos qadriyatlar tarixini rivojlantirish borasida ijtimoiy faollikka erishish.

Qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda 2018-yildan 2021-yilgacha uch bosqichda tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Amalga oshirilgan ishlar 3.1.1-jadvalda o'z aksini topgan.

Tadqiqotimizdagi tajriba-sinov ishlarini quyidagi insonparvalashtirish tamoyillarga asoslanib o'tkazdik:

Yaxlitlik tamoyili: a) tizimli-jarayonli yondashuv; b) talabalarini kasbiy tayyorlash jarayonida o'rganilayotgan hodisaning o'rni aniq belgilash; v) o'rganilayotgan hodisaning dinamikasini ochib berishni talab etadi. Mazkur tamoyil asosida talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish modelini amalga oshirishga rahbarlik qilindi.

Tajriba-sinov ishlarini quyida jadvalda ko'rsatilgan umummilliylikga xoslik tamoyillariga tayangan holda amalga oshirildi. Quyida mazkur tamoyillarga qisqa to'xtalib o'tamiz.

Samaradorlik tamoyilining mohiyati shundaki, olingan natijalar talabalarni kasbiy tayyorlashning tipik, standart shart-sharoitlarida qo'lga kiritilgan natijalardan yuqori bo'lishi lozim. U ham tamoyil, ham tadqiqotning yakuniy maqsadidir. Mazkur tajriba-sinov ishlari jarayonida pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish metodikasini rejalashtirishda o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda talaba shaxsiga yondashuv quyidagi qoidalarni amalga oshirishni talab etdi: eksperimentatorning diqqatini talabalarining tajriba-sinovga munosabati, taqdim etilayotgan topshiriq va mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilarning qiziqishiga jalb etish; ta'lim oluvchilarning ishchanlik qobiliyati (psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari) va individual yordam ko'rsatish, konsultatsiya

berish; topshiriq va metodik materiallarni ta'lim oluvchilar o'rtasida murakkablik darajasi va uni o'zlashtirishning imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqsimlash; o'rganilayotgan muammoning murakkab masalalarini chuqur qayta ishlab chiqish bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini aniqlash, o'z-o'zini baholashga erishish.

Ilmiy axborotlarning zarurati va yetarli bo'lishi tamoyili tajriba-sinovni aniq baza(bizning tadqiqotda ana shunday baza sifatida Toshkent davlat pedagogika universitetida tashkil etishda o'z aksini topadi. Talabalarga taqdim etilayotgan axborot yetarli va zaruriy hajmda bo'lishi lozim. Ilmiy-metodik maslahatning har tomonlamaligi o'qituvchining o'zidan yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Talabalarni axborot xavfsizligini ta'minlashga tayyorlashga ko'plab omillar, shu jumladan, ta'lim mazmuni va metodlarining ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga mosligi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tajriba-sinov o'tkazish jarayonida talabalarga maslahatlar berish quyidagi talablarga javob beradi:

maxsus ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni taqdim etish uni bajarishni osonlashtiradi;

sub'yektiv pozitsiyani anglash va ishonch hosil qilishga yo'naltirilgan, yangi material mazmunini o'zlashtirishning interfaol metod va usullari taklif etiladi;

axborot tahdidlariga qarshi kurashishning profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tanlash va moslashtirish imkoniyati taqdim etiladi.

Pedagogik eksperimentni insonparvarlashtirish tamoyili texnokratik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ma'muriy kabilardan insoniy qadriyatlarining ustunligi g'oyasiga asoslanadi. U tajriba-sinovda quyidagi shartlarni amalga oshirishni talab etadi: o'rganilayotgan jarayonda talabalarni qadr qimmatini ulug'lash; o'rganilayotgan jarayonda talabalarga ijobiy tomondan yondashish; o'rganilayotgan jarayonda talabalar orasidagi o'zaro xurmatni saqlash; o'rganilayotgan jarayonda talabalardagi emotsional holatlariga etibor berish muhim hisoblanadi.

3.1.2-jadval. Talabalarda milliylikka xos qadriyatlar tarixinirivojlanganlik darajasini baholash mexanizmi

Mezonlar	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkich bahosi	Ko'rsatkich-ning miqdor bahosi
Motivatsion qadriyat	Milliylikka xos g'oya va mafkurani o'zlashtirish, yot g'oya va mafkuralarga qarshi turish motivlarining shakllanganligi		
Kognitiv -intellekt	G'oyaviy-mafkuraviy bilimlar, yot g'oya va mafkuralarga qarshi kurashishga oid bilimlarning to'liqligi		
Amaliy	Moslashuvchan (Soft skills) va maxsus (Hard skills) kompetensiyalarni o'zlashtirganlik o'zlashtirganligi		
	Refleksiv nuqtayi nazarining shakllanganligi		
Refleksiv	Milliylikka xos g'oya va mafkuraga aksiologik munosabat, milliylikka xos va umuminsoniy qadriyatlarining shakllanganligi;		
	Vatanparvarlik va milliylikka xos-qadriyatlarida oid qadriyatlarining shakllanganligi		

Xulosa va takliflar. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalar ongida milliy qadriyatlar tarixini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari amaliy jihatdan yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Bunday

Tajriba-sinov ishlari asosida milliy qadriyatlarni o'rgatishning innovatsion metodikasi ishlab chiqildi. Dissertatsiyada talabalarda milliylikka xos qadriyatlar tarixini rivojlantirishga qaratilgan bosqichli tajriba-sinov ishlari tashkil etildi va ular asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, muammoli o'qitish va loyihalar asosidagi yondashuvlar uyg'unlashtirilgan holda amaliyotga tadbir qilinadi.

Tajriba-sinov ishlarining ilmiy-metodik bosqichlari asoslab berildi. Sinov ishlari diagnostika, tayyorgarlik, eksperimental va nazorat bosqichlarida olib borildi. Har bir bosqichda milliy qadriyatlar tarixini o'zlashtirishga oid talabalarning bilim, munosabat va amaliy ko'nikmalaridagi o'zgarishlar muntazam monitoring asosida baholab borildi.

Eksperimental guruh natijalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari natijasida milliy qadriyatlarining tarixiy asoslarini anglash, ularga nisbatan barqaror ijobiy munosabat, milliylik g'oyalarini amalda qo'llash kabi ko'rsatkichlarda sezilarli ijobiy o'sish kuzatildi. Bu esa taklif etilgan metodikaning samaradorligini isbotladi.

Milliy qadriyatlarni shakllantirishda faoliyatga asoslangan yondashuvning ustunligi ko'rsatildi. Talabalarni milliy an'analar, tarixiy qadriyatlar, urf-odatlar asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlarga jalb etish orqali ularning shaxsiy identifikatsiyasi, ijtimoiy faolligi va g'oyaviy qarashlarida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Tajriba natijalari asosida pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi. Oliy ta'lim tizimi uchun milliy qadriyatlar tarixini o'rgatishga doir maxsus modulli dasturlar, o'quv-metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari va reflektiv topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi. Ular pedagogik amaliyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan ilmiy asoslangan materiallar sifatida baholandi.

Tadqiqot ishida talabalarning milliy qadriyatlar tarixini o'rganishini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (3.1.2-jadvalga qarang).

yondashuv talabalarda tarixiy ong, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda pedagogik amaliyot uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – B. 56.
- Abdurahmonov A. Qadriyat – ma'naviy merosdir // «Ma'rifiy gulshani» g. – 12 (77) 2007y. – 7-bet
- Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi T.: «Aloqachi» 2001 y. 163 bet.
- Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta'lim nazariyasi) Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2006 y. 125 bet
- Barkamol avlod – Ozbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh. 1998, 7-bet 6. Zaripov M.Z. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi «Pedagogik ta'lim», -T.: 2000. - №2.-6-9 betlar.
- Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T:«O'qituvchi», 2004, - 95 bet.